

RAXBAR MA'NAVIYATI BOSHQARUVIDA NAMOYON BULISH

Qo'ldoshev Javohir

**Annotatsiya:** *Qo'ydagi maqola rahbar xodimlar, yetakchilar, yo'lboshchilarga xos ma'naviy qiyofa, axloq-odob, muomala va boshqaruv madaniyatini ifodalovchi so'z birikmasidir boshqaruv madaniyati va zamonaviy rahbar shaxs ma'naviy qiyofasining milliy-axloqiy jihatlari haqida to'liq bayon qilinadi*

**Kalit so'zlar:** *Maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa so'zlar: rahbar ma'naviyat, boshqaruv tizimi, milliy-axloqiy jihatdan zamonaviy rahbarlik*

**KIRISH**

Mamlakatimiz o'z taraqqiyoti yo'lida yangi ufqlar va maqsadlarga harakat qilayotgan, jamiyatimizning hamma sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarilayotgan bir vaqtda eng dastlab rahbarlarning vazifasini halol va malakali bajarishga, qolaversa, fidoyiligiga ko'p narsa bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Rahbar kadr, davlat xizmatchisining shaxsiy sifatleri, fazilatlari makon va zamonda takomillashadi. Hozirgi yangi, o'tish vaqtda dastlabki rahbar kadrlarda bo'lmagan istiqbol davriga xos fazilatlarni tez rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotalarning sharhlari:

O'zgarayotgan ijtimoiy sharoit, ish uslubi, rahbarlik tarzi, talablari yangi turdagi mamlakat mulozimlari, rahbar kadrlarni tarbiyalash uchun kerak bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitni yaratdi. Dastlabki vazifa davlat xizmatchilariga qo'yilayotgan yangi talablarni, ular uchun shart bo'lgan fazilatlarni ilmiy asoslab, tahlil qilib, umumlashtirib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya amaliy tajriba yordamida maxsus rivojlantirishdir. Ana shunda davlat xizmatchilari tafakkuridagi yangilanish ular yordamida xalqqa, demakki, har bir O'zbekistonlikka yetib boradi. Jamiyat tafakkuri tezroq yangilanadi millat bir jonu bir tan bo'lib, islohotlarni tezlashtiradi. Rahbar o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini-o'zi kamol toptirish, mustaqil bilim olish, ma'naviy dunyosini doimiy tarzda rivojlantirish ustida sa'y-harakat qilsa, demakki uning istiqboli porloq bo'ladi. Ammo uning o'z faoliyatini nazorat qilmasligi, baholanmasligi va zarurli xulosalarni chiqara olmasligi o'zi ustida ishlashga bo'lgan istakni pasaytiradi, lavozimiga qaraganda sovuqqonlik, loqaydlik rivojlanadi. Shu sohada va tizimda faoliyat ko'rsatgan hamkasblarning maslahatlari, ishga munosabatlari uni sekinlashtiradi va asta-sekin faollik yo'qola boradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Rahbarning salohiyati, umumiy madaniyati, muomala qonun-qoidalarini o'zlashtirganligi, notiqlik mahorati, mustahkam irodasi, rostgo'yliigi, g'amxo'rliigi, ishchanligi va boshqa shaxsiy fazilatlari kishilarga ta'sir qilishning muhim omillari sanaladi va, aksincha, rahbar obro'-e'tiborining pasayishi, uning nutqidagi nuqsonlar,

iqtisodiy munosabatlarni hal eta olmaslik, qat'iyatning zaiflashuvi, xulq-atvordagi kamchiliklar uning jamoa a'zolariga ta'sir qilish darajasini keskin tushirib yuboradi. Rahbarlik muayyan tuzilishga, o'zaro bog'lanishga ega bo'lgan murakkab shaxslararo munosabatni tartibga solish, bu munosabatlarni maqsadga xizmat qildirish hamdir. Bundan tashqari, rahbar moliyaviy, tarbiyaviyva boshqa qator sohalarni bajaradi. Buning uchun esa ma'lum kasbiy malakalarini egallash kerak, aks holda ularning zaifligi rahbarlik faoliyatini murakkablashtiradi

#### Tahlil va natijalar:

Bugungi kunda boshqaruv tizimida ishlayotgan har qanday rahbar uchun, u biron bir korxonada, tashkilot, jamoa rahbari bo'ladimi yoki siyosiy arbob bo'ladimi, odamlar bilan muloqot madaniyatini o'zlashtirish, jonli so'z vositasida insonlarga O'zbekiston hukumati siyosatini to'g'ri tushuntira olish, davlatimizda olib borilayotgan tub faoliyatlar jarayonida faol ishtirok etish va fuqarolik burchlarini chuqur tushunib yetishlariga yordam berish asosiy ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda davlat boshqaruvi va rahbarlik faoliyatining axloqiy va ma'naviy qiyofasi keng ko'lamda o'zgardi. Nafaqat davlatchilikning axloqiy qadriyatlari va sivilizatsiya yo'nalishlari, hatto asrlar osha yig'ilgan siyosiy tajribalar ham tamomila o'zgacha bo'ldi. Biroq rahbar faoliyati siyosatining takomilida hamon axloqiy ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoji saqlanib kelmoqda. Qolaversa, zamonaviy rahbarlik qanday bo'ladi va uning asoslarini qanday munosabatlar tashkil qilmasin, u milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanishi haqidagi masala o'z mazmunini hozir ham yo'qotgan emas.

#### Xulosa va takliflar:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jamiyat va davlat boshqaruvida rahbar axloqi madaniyati muammolari alohida va juda keng ilmiy va amaliy masalalardan biri bo'lib sanaladi. Rahbar shaxsning axloqi va boshqaruvda amal qilishi kerak bo'lgan madaniy mezonlarning uslublariga qaratis:h lozim. Jumladan, boshqaruvda rahbarlarning o'z vazifasiga bo'lgan axloqiy mas'uliyati, odobi va xatti-harakati, mamlakat siyosatiga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga ta'siri, boshqaruv munosabatlarida etikaviy standartlarni vujudga keltirish, manfaatlar ixtilofini bartaraf etish, muloqot qurish, muomala madaniyati, rahbarning axloqiy sifatlarining tasnifi, jamoada yoxud xizmat vazifasida guruhbozlik oldini olish kabi masalalarini qamrab oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mahmudov I., J. Qoraboyev. Rahbar shaxs psixodiagnostikasi. –Toshkent: Akademiya, 2013. 2. Quronboyev Q., Hayitov U. Rahbar ma'naviyatining boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. 3. Karimova V., Xayitov O., Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma.

-Toshkent, 2008.4.G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2001.5.Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent. 2006.6.Qodiraliyev, ATOGL (2022). RAHBARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDAGI INDIVIDUAL PIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (12), 1151-1155.Page

7.Qodiraliyev, ATU (2022). BOSHQARUV JARAYONIDA ETKORCHILIK MAKORATLARINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 2 (11), 519-525.8.O'G'Li, Q. A. T. (2021). HARAKATLAR STRATEGIYASI-MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIKNI YANADA MUSTAHKAMLASH ASOSI.

Oriental renaissance:

Innovative educational, natural and social sciences 1(2), 172-178.